O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI»

MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

(III QISM)



SAMARQAND

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

TAMBOV DAVLAT UNIVERSITETI

QARSHI MUXANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI

«XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(III QISM)

2026-yil 20-21-fevral kunlari

SAMARQAND – 2026

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАТSIЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

ТАМБОВСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»

САМАРКАНДСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

“НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЕНОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ”

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

(ЧАСТЬ III)

(20-21-февраль 2026 г.)

САМАРКАНД – 2026

UO’K: 338.2:004(082)
I-52
KBK: 65.7

Xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari */xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (III qism). 2026 йил 20-21-fevral kunlari. Samarqand, SamISI, 2026. – 282 bet.*

Nashr uchun mas’ul:
M.Q.Pardayev – iqtisod fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi rahbari:
M.E.Po‘latov – iqtisod fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi a’zolari:
M.M.Muxammedov – iqtisod fanlari doktori, professor,
J.R.Zaynalov – iqtisod fanlari doktori, professor,
I.S.Tuxliev – iqtisod fanlari doktori, professor,
O.Murtazaev – iqtisod fanlari doktori, professor,
R.X.Ergashev – iqtisod fanlari doktori, professor,
V.I.Abdukarimov – iqtisod fanlari doktori, professor,
N.A.Ibragimov – iqtisod fanlari doktori, professor,
K.B.Urazov – iqtisod fanlari doktori, professor,
Q.J.Mirzaev – iqtisod fanlari doktori, professor,
A.Eshtaev – iqtisod fanlari doktori, professor,
S.N.Tashnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor,
A.N.Xoliqulov – iqtisod fanlari nomzodi, professor,
D.H.Xolmamatov– iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.
Sahifalovchi: Firdavs O‘roqov

An’anaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida xizmatlar sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlantirish muammolari va ularning yechimlari, sohaning alohida tarmoqlari samaradorligini oshirish istiqbollariga oid masalalar yoritilgan barqaror iqtisodiy rivojlanish va xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari asosida jadal rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolari va ularni hal qilishning strategik yo‘nalishlari, kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligi, farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirish jarayonida marketing va menejment imkoniyatlarini takomillashtirish masalalari, xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishda investisiyalarni jalb qilish va moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit muammolarini bartaraf qilish masalalari, xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o‘rin olgan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-225-40-6

© SamISI, 2026 y.

I SHO‘BA. BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH VA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA JADAL RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

A.N.Xoliqulov *– SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasi mudiri,i.f.n., professor, “Ipak yo‘li” Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasi professori*

MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMIDA HAMDA RAQOBAT MUHITIDA NARXNING ASOSIY VAZIFALARI VA TURLARI

Annotatsiya*: maqolada monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimida hamda raqobat muhitida narxning asosiy vazifalari, narxlarni erkinlashtirish yo‘llari, Narxlar tizimida ularning ayrim turlarining iqtisodiy mazmuni keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *narx, bozor, bozor mexanizmi, raqobat, ulgurji narxlar, shartnoma narxlar, chakana narxlar, demping narx, erkin bozor narxlari.*

Аннотация: *в статье представлены основные функции цен в системе антимонопольного регулирования и в конкурентной среде, пути либерализации цен и экономическое содержание некоторых их видов в ценовой системе.*

Ключевые слова: *цена, рынок, рыночный механизм, конкуренция, оптовые цены, договорные цены, розничные цены, демпинговые цены, цены свободного рынка.*

Abstract: *the article presents the main functions of prices in the antitrust management system and in a competitive environment, ways to liberalize prices, and the economic content of some of their types in the price system.*

Keywords: *price, market, market mechanism, competition, wholesale prices, contract prices, retail prices, dumping prices, free market prices.*

Narx, baho- tovar qiymatining puldagi shakli; bozor iqtisodiyotida amal qiluvchi iqtisodiy dastak. Iqtisodiy tafakkur tarixidagi ayrim qarashlarda narxni qiymatning mehnat nazariyasiga asoslanib talqin qilishgan, unga qiymatning puldagi ifodasi deb qaralgan. Narxni pulning miqdoriy nazariyasi asosida izoxlab, narxga xarajatlar, tovarning nafliligi va raqobat ta’sir etishini e’tirof etadi. Narxni qiymat belgilaydi, ammo u aniq bir qiymatdan yuqori yoki past bo‘lishi mumkin, bu esa bozordagi muayyan tovarga bo‘lgan talab va taklift bog‘liq. Narx faqat qiymatni emas, balki talab va taklif, shuningdek, tovarning ijtimoiy foydaliligi, sifati va b. tovarlar o‘rnini bosa olishi, muomaladagi pulning xarid qobiliyatiga ham bog‘liq. Binobarin, Narx qiymatdan miqdoran farqlanadi. Mahsulot tannarxi har qanday Narxning asosi bo‘lib, mahsulotning hayotiy sikli davomida uning narxidagi o‘zgarishlarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Narx miqdori xarajatlarga va tovar sifatiga to‘g‘ri mutanosiblikda, rakobatning shiddatiga esa teskari mutanosiblikda turadi.

Urazov Komil Baxramovich *– SamISI, professor*
Raximov Xoshim Amirkulovich *– TDIU SF mustaqil tadqiqotchisi*

BIRGALIKDA SUG‘URTA OPERATSIYALARI VA QAYTA SUG‘URTA BO‘YICHA XARAJATLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Maqolada birgalikda sug‘urta operatsiyalari va qayta sug‘urta bo‘yicha xarajatlarni xalqaro standartlar asosida tan olish, ularni buxgalteriya schyotlarida aks ettrish va buxgalateriya o’tkazmalarida rasmiylashtirish hamda buxgalteriya hisobotlarda aks ettrish masalalari yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *sug’urta, birgalikda sug‘urta, qayta sug‘urta, xalqaro standartlar, buxgalteriya hisobi, hisobot, xarajatlar, MHXS.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы признания затрат на операции сострахования и перестрахования на основе международных стандартов, их отражения в бухгалтерской отчетности и формализации бухгалтерских операций, а также их отражения в бухгалтерских отчетах.*

Ключевые слова: *страхование, сострахование, перестрахование, международные стандарты, бухгалтерский учет, отчетность, затраты, МСФО.*

Abstract: *The article discusses the issues of recognizing costs of co-insurance and reinsurance operations based on international standards, their reflection in accounting accounts and formalization in accounting transactions, and their reflection in accounting reports.*

Keywords: *insurance, co-insurance, reinsurance, international standards, accounting, reporting, costs, IFRS.*

Sug‘urta bozorining globallashuvi, turli davlatlardagi xalqaro hisobot standartlariga muvofiqlik va sug‘urta xizmatlarining murakkablashuvi sharoitida, sug‘urta tashkilotlari moliyaviy ma’lumotlarni aniq va shaffof taqdim etishi talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, **birgalikda** va **qayta sug‘urta** operatsiyalari bo‘yicha xarajatlarni hisob va hisobotda alohida, mustaqil va mantiqiy aks ettirish masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi.Bugungi kunda, 17-son MHXS “Sug‘urta shartnomalari” (IFRS 17 – Insurance Contracts), hamda xalqaro amaliyotdagi Qonunchilikka asoslangan buxgalteriya hisob tamoyillari (SAP) va Umumqabul qilingan buxgalteriya hisob tamoyillari (GAAP) standartlari bu turdagi operatsiyalar bo‘yicha hisob yuritishni aniq reglamentlashga harakat qilmoqda. Biroq, amaliy hisobotlarda bu ikki yo‘nalish ko‘p hollarda yagona toifa sifatida qayd etiladi. Bu esa tahliliy imkoniyatlarni cheklaydi, xarajatlarning manbasini anglashni qiyinlashtiradi va xatarlarning noto‘g‘ri baholanishiga olib kelishi mumkin.17-son MHXS standartida qayta sug‘urta va birgalikda sug‘urta shartnomalarini alohida rasmiylashtirish, har biri uchun alohida hisob yuritish zarurligi qayd etilgan. Standartda qayta sug‘urta shartnomalari qayta sug‘urtaga berilgan shartnomalar sifatida aniqlangan va ular bo‘yicha xarajatlar hamda daromadlar, asosiy sug‘urtadan farqli hisobda aks ettirilishi shartligi belgilangan (IFRS Foundation, 2020).

Mignolet (2017) o‘z magistrlik dissertatsiyasida 17-son MHXSning joriy etilishi orqali qayta sug‘urta xarajatlari va kirimlarini aniq tasniflash, sug‘urta faoliyati samaradorligini ishonchli baholash uchun metodologik asos yaratilishini ko‘rsatib bergan.

Van der Meulen (2015) va **Trueman (2018)** kabi olimlar, birgalikda sug‘urta shartnomalariga xos bo‘lgan xususiyatlar — ya’ni xarajatlar va xavflarning sug‘urtalovchilar o‘rtasidagi taqsimoti, ularning hisobda yoritilishini murakkablashtirishini qayd etishgan. Ular, qayta sug‘urta jarayonlari alohida ishchi schyotlarda yuritilmasligi oqibatida kompaniya foydasida "pul oqimining noto‘g‘ri manbasi" yuzaga kelishini ta’kidlashgan.

Shuningdek, **Swiss Re (2021)** va **Munich Re (2019)** kabi yirik qayta sug‘urta tashkilotlari o‘z hisobotlarida qayta sug‘urta xarajatlarini va foydalanish oqibatlarini alohida yuritishni strategik hisob qilishlarini ta’kidlashgan.

1-jadval

Birgalikda va qayta sug‘urta iqtisodiy va xavf tavsifi jihatidan farqlar[65]

Yo‘nalish	Birgalikda sug‘urta	Qayta sug‘urta
Xavf taqsimoti	Sug‘urta tavakkalliklari bir nechta sug‘urtalovchilar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri taqsimlanadi	Xavf (risk) tashqi tuzilma – qayta sug‘urtalovchiga topshiriladi
Funksional vazifa	Bir vaqtda bir nechta sug‘urtalovchilar bir shartnoma asosida mas’uliyatni bo‘lishadi	Asosiy sug‘urtalovchi o‘z majburiyatini qayta sug‘urta qilish orqali boshqa tashkilotga yuklashi
Daromad va xarajat shakllanishi	Har bir sug‘urtalovchi o‘z ulushiga yarasha xarajat qiladi	Qayta sug‘urta mukofoti, komission to‘lov va hizmat haqlari orqali xarajat shakllanadi

Harajatlarning manbalari va xarakteri farqli bo‘lgani bois, ularni **umumlashtirish hisobi xato va tahliliy noto‘g‘rilik** keltirib chiqaradi.

17-son MHXS standartga asosan, qayta sug‘urta shartnomalari sug‘urta majburiyatlarining o‘zga sub’ektiga o‘tkazilishi bilan bog‘liq deb qaraladi. Shu bois, hisobotda ularni asosiy sug‘urta operatsiyalaridan **alohida inobatga olish** talab qilinadi.

Moliyaviy hisobotning asosiy vazifalaridan biri – rahbariyatga strategik qaror qabul qilish uchun aniq, to‘liq va tahliliy ma’lumot taqdim etishdir. Sug‘urta sohasida bu qarorlar xavfni boshqarish, xizmatlar tarkibini optimallashtirish va rentabellikni oshirish bilan bevosita bog‘liq. Shu jihatdan, **birgalikda sug‘urta va qayta sug‘urta xarajatlarini alohida hisob yuritish**ning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

[65] Muallif ishlanmasi

2-jadval

Xarajat tuzilmasi va yuzaga kelish bosqichlaridagi farqlar[66]

Xarajat turi	Birgalikda sug‘urta	Qayta sug‘urta
Agent komissiyasi	Hamkorlikdagi har bir sug‘urtalovchiga xos	Qayta sug‘urtalovchidan alohida
Hujjatlashtirish	Kelishuv bayonnomalari, kelishuv shartlari, bosh kompaniya tuzilmasi	Qayta sug‘urta (Cedent-cession) shartnomasi, bordero to‘lovlari
Audit xarajatlari	Hamkorlar orasida taqsimlangan tekshiruv	Qayta sug‘urtalovchi tashkilot tomonidan yuritiladigan alohida audit va hisobot

Birgalikda sug‘urta va qayta sug‘urta xarajatlarini alohida hisob yuritish – bu faqatgina buxgalteriyada texnik farq emas, balki **boshqaruv darajasida strategik qarorlarni aniq, samarali va asoslangan tarzda qabul qilish imkonini beradigan muhim tizimdir**. Bu nafaqat moliyaviy nazoratni kuchaytiradi, balki kompaniyani raqobatbardosh va barqaror faoliyat yuritadigan bozor ishtirokchisiga aylantiradi.

Ikkala sug‘urta turi — birgalikda **sug‘urta** va **qayta sug‘urta** — xarajat xarakteri, manbalari va iqtisodiy natijalari jihatidan mutlaqo farqli. Shuning uchun:

- ✓ Ularni **alohida ishchi schyotlarda yuritish** — moliyaviy nazorat, strategik boshqaruv, va xalqaro hisobot talablari nuqtai nazaridan **zarur va majburiy**;
- ✓ Umumlashtirilgan holda hisob yuritish kompaniya uchun **xavfli noto‘g‘ri moliyaviy xulosalar** keltirib chiqarishi mumkin;
- ✓ **IFRS, GAAP, SAP va milliy standartlar** bu masalada aniq ajratishni talab etadi va alohida schyotlar yuritilishiga asos bo‘ladi.

Birgalikda sug‘urta va qayta sug‘urta xarajatlarini hisobda alohida yuritish nafaqat xalqaro standartlarga muvofiq, balki tahliliy boshqaruv, moliyaviy shffoflik va xatarlarni minimallashtirish nuqtai nazaridan ham zarurdir.

Sug‘urta sohasi zamonaviy moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, iqtisodiyotda risklarni taqsimlash, investitsiya resurslarini safarbar qilish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Sug‘urta tashkilotlarida xarajatlarni to‘g‘ri va ishonchli hisobga olish sug‘urta tariflarini asoslash, xizmatlar rentabelligini baholash hamda moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Amaliyotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta va birgalikda sug‘urta shartnomalari iqtisodiy mazmuni, risklarni taqsimlash mexanizmi va xarajatlar tarkibi jihatidan sezilarli darajada farq qiladi. Biroq ko‘plab sug‘urta tashkilotlarida ushbu shartnomalar bo‘yicha xarajatlar yagona 2010- “Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari” schyotda umumlashtirilgan holda hisobga olib kelinmoqda. Bu esa

[66] Muallif ishlanmasi

sug‘urta turlari kesimida xarajatlar samaradorligini baholashni, har bir shartnoma turi bo‘yicha moliyaviy natijalarni aniqlashni qiyinlashtiradi.

17-son MHXS “Sug‘urta shartnomalari” xalqaro standartida sug‘urta shartnomalarini guruhlash va ular bo‘yicha xarajatlarni alohida hisobga olish talablari belgilangan. Shuningdek, 8-son MHXS “Operatsion segment” standarti segmentlar kesimida moliyaviy axborot taqdim etishni talab qiladi. Ushbu talablar amaldagi hisob tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

3-jadval

Sug‘urta xarajatlari bo‘yicha taklif etilayotgan buxgalteriya o‘tkazmalari

№	Operatsiya mazmuni	2010 – To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta	2020 – Birgalikda sug‘urta	2030 – Qayta sug‘urtalash
1	Agentlik va brokerlik komissiyalari hisoblandi	Dt 2010 Kt 6040	Dt 2020 Kt 6040	Dt 2030 Kt 6080
2	Anderrayting (aktuar, syurvey) xizmatlari qabul qilindi	Dt 2010 Kt 6090	Dt 2020 Kt 6090	Dt 2030 Kt 6090
3	Polis, sertifikat, shartnomalarni rasmiylashtirish xarajatlari	Dt 2010 Kt 6010, 1010	Dt 2020 Kt 6010, 1010	—
4	Zararlarni tartibga solish xarajatlari (ekspertiza, avariya komissari)	Dt 2010 Kt 6090	Dt 2020 Kt 6090	Dt 2030 Kt 6090
5	Sug‘urta portfeliga tegishli ish haqi hisoblandi	Dt 2010 Kt 6710	Dt 2020 Kt 6710	Dt 2030 Kt 6710
6	Ijtimoiy ajratmalar hisoblandi	Dt 2010 Kt 6520	Dt 2020 Kt 6520	Dt 2030 Kt 6520
7	Qayta sug‘urta shartnomalarini joylashtirish va yuritish xarajatlari	—	—	Dt 2030 Kt 6010
8	Xarajatlar bo‘yicha to‘lov amalga oshirildi	Dt 6040/6090/6010 Kt 5110	Dt 6040/6090/6010 Kt 5110	Dt 6080/6090/6010 Kt 5110
9	Hisobot davri oxirida tannarxqa o‘tkazildi	Dt 9130 Kt 2010	Dt 9130 Kt 2020	Dt 9130 Kt 2030

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari sug‘urta tashkilotlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta, birgalikda sug‘urta va qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha xarajatlarni yagona schyot doirasida hisobga olish amaliyoti zamonaviy moliyaviy hisobot va boshqaruv ehtiyojlariga to‘liq javob bermasligini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv xarajatlarning iqtisodiy mazmunini yetarli darajada aks ettirmaydi, sug‘urta turlari bo‘yicha rentabellikni aniqlash imkoniyatlarini cheklaydi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida axborot asimmetriyasini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta, birgalikda sug‘urta va qayta sug‘urta shartnomalari o‘rtasida risklarni taqsimlash mexanizmi, xarajatlar tarkibi,

hisob-kitob sub’ektlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish xususiyatlari jihatidan jiddiy farqlar mavjudligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu bois ushbu shartnomalar bo‘yicha xarajatlarni alohida hisob ob’ektlari sifatida ko‘rish zarurati kelib chiqadi.

Ishlab chiqilgan metodologik yondashuvga muvofiq, **2010 – “To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha xarajatlar”, 2020 – “Birgalikda sug‘urta shartnomalari bo‘yicha xarajatlar” va 2030 “Qayta sug‘urtalash operatsiyalari bo‘yicha xarajatlar”** ishchi schyotlarini joriy etish sug‘urta tashkilotlarida hisob axborotining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishini ta’minlaydi. Mazkur yondashuv orqali har bir sug‘urta turi bo‘yicha xarajatlarni aniq identifikatsiya qilish, ularni sug‘urta mukofotlari bilan taqqoslash va iqtisodiy samaradorlikni baholash imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2010, 2020 va 2030 schyotlarini joriy etish:

- ✓ sug‘urta tashkilotlarida **xarajatlar hisobining shaffofligini oshiradi**;
- ✓ 17-son MHXS “Sug‘urta shartnomalari” standartida belgilangan shartnoma guruhlari bo‘yicha hisob yuritish talablariga to‘liq mos keladi;
- ✓ 8-son MHXS “Operatsion segment” doirasida segment hisobotini shakllantirish uchun zarur axborot bazasini yaratadi;
- ✓ sug‘urta tariflarini ilmiy asosda qayta ko‘rib chiqish va optimallashtirishga xizmat qiladi;
- ✓ ichki nazorat va boshqaruv hisobining samaradorligini oshiradi.

Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot sug‘urta hisobida ishchi schyotlar tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy natijalarni shakllantirish mexanizmini chuqurroq ochib beradi hamda sug‘urta xarajatlarini funksional va iqtisodiy mazmun jihatidan klassifikatsiya qilishga qo‘shimcha nazariy asos yaratadi. Amaliy jihatdan esa taklif etilgan model sug‘urta tashkilotlarida joriy etish uchun mos, sodda va axborot texnologiyalari bilan integratsiya qilish imkoniyatiga ega.

Xulosa qilib aytganda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta, birgalikda sug‘urta va qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha xarajatlarni 2010, 2020 va 2030 schyotlarida alohida hisobga olish sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy hisobning xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashuvini ta’minlash, hisob axborotining ishonchliligi va tahliliy qiymatini oshirish hamda strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda mustahkam axborot asosini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mignolet J., Van der Meulen S. Accounting for insurance contracts: Current practice and future challenges under IFRS 17. – Brussels : European Accounting Association, 2015. – 32 p.

2. Trueman B. Financial reporting and performance measurement in insurance companies. – London : Routledge, 2018. – 284 p.

3. Swiss Re Institute. World insurance: navigating reinsurance and risk costs. – Zurich : Swiss Re Institute, 2021. – 45 p.

4. Munich Re. Reinsurance accounting and expense management: global perspectives. – Munich :Munich Re Group, 2019. – 38 p.

5. Vaughan E. J., Vaughan T. *Fundamentals of Risk and Insurance*. – 11th ed. – Hoboken : Wiley, 2014.

6. Rejda G. E., McNamara M. J. *Principles of Risk Management and Insurance*. – 13th ed. – Boston : Pearson, 2017.

7. Абдураимова М.А.Суғурта ташкилотларида молиявий хисоботини тузиш ва аудиторлик текширувидан ўтказиш тартибини такомиллаштириш. Иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.Т.: 2020 й. 34 бет.;

8. Abdusalomova, N. B. (2024). Sug’urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, *4*(05), 83-90.;

8. Кузьминов Н.Н. Особенности бухгалтерского учета в страховых компаниях / Издание второе дополненное и переработанное. – М.: Анкил, 2000. – 204 с.

9. Петрова В.И., Петров А.Ю., Скачко Г.А. Бухгалтерский учет, анализ и аудит деятельности страховых организаций. – М.: Финансы и статистика, 2008. – 400 с.

Юлдашова Н.З.*- Старший преподаватель кафедры «Экономический анализ и статистика» Самаркандского института экономики и сервиса, PhD*

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСЛУГ ЗА СЧЁТ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: *статья посвящена комплексному исследованию процессов цифровой трансформации сферы услуг и их влияния на повышение эффективности деятельности организаций. В работе анализируются теоретические основы цифровизации, современные инновационные подходы и механизмы оптимизации сервисных процессов. Особое внимание уделено автоматизации, внедрению цифровых платформ, использованию больших данных, искусственного интеллекта и облачных решений. Рассмотрены научные труды ведущих исследователей и сформирована методологическая основа анализа. На основе обобщения результатов предлагаются конкретные рекомендации по повышению эффективности услуг посредством внедрения цифровых технологий.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, инновации, сфера услуг, эффективность, автоматизация, цифровые платформы, искусственный интеллект, сервисная деятельность, сервисные процессы.*

Annotatsiya: *ushbu maqola xizmat ko'rsatish sohasidagi raqamli transformatsiya jarayonlari va ularning tashkilot faoliyatini yaxshilashga ta'sirini har tomonlama o'rganishga*

Тўлқин Исматулло ўғли Яхяев		
Сысоева Маргарита Сергеевна, Борисова Полина Сергеевна	МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ КОМПАНИЕЙ НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ	201
Уразов Комил Бахрамович, Умарова Шахноза Келдиёр қизи	КОРХОНАЛАР МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАРНИ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ШАКЛЛАРИДА АКС ЭТТИРИШ ВА ОЧИҚЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	209
Рафеев Д.Р., Усмонова Н.У.	СИСТЕМЫ НЕПРЕРЫВНОГО СКЛАДСКОГО УЧЕТА	214
Urazov Komil Baxramovich, Abdurasulov Jamshidbek Axmad o‘g‘li	QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOT METODOLOGIYASI	218
U.A.Shirinov	XARAJATLAR VA DAROMADLARNI SEGMENTLAR KESIMIDA TO‘G‘RI GURUHLASH VA AJRATISH METODIKASI	224
Raximov Xoshim Amirkulovich	SUG‘URTA XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLARDA XARAJATLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFI	230
Urazov Komil Baxramovich, Raximov Xoshim Amirkulovich	BIRGALIKDA SUG‘URTA OPERATSIYALARI VA QAYTA SUG‘URTA BO‘YICHA XARAJATLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	236
Юлдашова Н.З.	ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСЛУГ ЗА СЧЁТ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	241
Shaynazarov Ravshan Mamayusubovich	MINTAQADA CHAKANA SAVDO AYLANMASIGA IMPORT MAHSULOTLAR HAJMINING TA’SIRINI KO’P OMILLI REGRESSIYA MODELI ASOSIDA BAHOLASH	246
	ASSESSMENT OF THE DEVELOPMENT OF THE PROCESSING	251